

MINNATDORLIK

2



Xalq o'gitalari

Yaxshilik qilgan yaxshilik ko'radi.



Yozma topshiriq

Men kimdan nima uchun minnatdorman?

Diagram for the writing assignment:

- Central question: Men kimdan nima uchun minnatdorman?
- Four empty boxes with arrows pointing to them from the central question, intended for student answers.



Savollarga javob bering

1. Qanday hollarda minnatdorlik bildiriladi?
2. Siz hayotda kimlardan minnatdorsiz?
3. Minnatdorlikni qaysi so'zlar orqali bildirasiz?
4. Noshukurchilik qanday oqibatlariga olib keladi?



O'qituvchi yordamida o'rganing

Minnatdorlik yaxshilikni bilish demakdir. Bizga berilgan hamma ne'matlar, qilingan yaxshiliklar uchun minnatdor bo'lishimiz kerak. Atrofimizda nimaiki yaxshilik bo'lsa, ko'ra olishimiz, hammasi uchun odamlarga, tabiatga rahmat aytishimiz lozim.



Vaziyatni o'rganing

Bir kekxa buvining bog'ida olma daraxti bor edi. U qo'shni bolalarni chaqirib, olmalarini terib berishni va bir qismini o'zlari bilan olib ketishlarini so'radi.

Bolalar tergan olmalarini yeb, po'choqlarni har tomonga otdilar.

Buni ko'rgan buvi juda xafa bo'ldi.



Savollarga javob bering

1. Buvijon bolalarga qanday yaxshilik qilmoqchi edi?
2. Bolalar buvijonning taklifiga qanday munosabatda bo'lishdi?
3. Ularning o'rnida nima qilgan bo'lardingiz?





Vaziyatni o'rganing

Tasviriy san'at darsida Azamatning qalami sinib qoldi. Buni ko'rgan Malika qalam ochqichini unga uzatdi. Azamat qalamining uchini chiqarib, chizishda davom etdi.



Savollarga javob bering

1. Malika qanday yaxshilik qildi?
2. Azamat nima deyishi kerak edi?




Yodda tuting

Sizga yordam bergan odamga minnatdorlik bildiring. Uning yaxshiligini unutmang. O'zingiz ham boshqalarga yaxshilik qiling.



Og'zaki topshiriq

Bulut ichidagi so'zlarni qachon ishlatamiz?



Bo'yang

1. Dars siz uchun qiziqarli bo'ldimi?



2. Dars mazmuni tushunarli bo'ldimi?

